

**QORAQALPOG`ISTON  
RESPUBLIKASI  
AMUDARYO TUMANI HOKIMI  
Q A R O R I**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
ÁMIWDÁRYA RAYONÍ HÁKIMI  
S H E S H I M I**

2022 - yil 21 - aprel

98-13-181-Q/22

Amudaryo tumani hokimligi

**Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 15-aprel kungi  
198-13-0-Q/22-sonli qarori haqida**

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 15-aprel kungi “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “Volontyorlik faoliyatini yanada qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 169-son qarori haqida” 198-13-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 15-aprel kungi “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “Volontyorlik faoliyatini yanada qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 169-son qarori haqida” 198-13-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Tuman hokimining o`rinbosarlari (M.Shermetov, N.Kamalov) va tumandagi davlat organlarining yoshlar bilan ishlashga mas`ul bo`lgan rahbar o`rinbosarlariga (maslahatchilariga) volontyorlar bilan ishlash vakolati yuklatilsin va uning doirasida ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

davlat organi faoliyati bilan bog`liq volontyorlik dasturlarini tayyorlash va tasdiqlash uchun davlat organi rahbariga kiritish;

davlat organi tomonidan volontyorlar ishtirokida ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar, loyihalar va aksiyalar o`tkazilishini tashkil etish;

davlat organi faoliyatini amalga oshirishga jalb etiladigan volontyorlarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta`minlash;

davlat organi faoliyatini amalga oshirishga jalb etiladigan volontyorlar tomonidan ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizom talablariga rioya etilishini nazorat

qilish;

davlat organining vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali samarali va tejamli shaklda amalga oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

davlat organi faoliyatini amalga oshirishga jalb etiladigan volontyorlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritish.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (M.Shermetov) tumandagi korxonalar va tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

a) bir oy muddatda:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bilan tasdiqlangan namunaviy nizom asosida davlat organining vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqib ularni volontyorlik orqali nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni;

volontyorlar jalb etiladigan yo'nalishlar ro'yxatini hamda ichki yo'riqnomani ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

b) har yili davlat organlarining vazifalar va funksiyalarini samarali amalga oshirishga ko'maklashgan faol volontyorlarni rag'batlantirish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Shermetov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**S.YO'LDASHEV**